

BOBUR HAYOTI VA IJODINING AKADEMIK LITSEY DARSЛИGIDA O'RGANILISHI

Umarova Shaxlo Baxridin qizi

Samarqand davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Bobur hayoti, faoliyati haqida ma'lumotlar, fikrlar o'ziga xos tarzda aks ettirilgan. Maqolada shoir va shoh sifatida olib borgan faoliyati, shuningdek, asarlari, ularda ilgari surilgan g'oyalar haqida fikrlar, mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: Bobur, shoh, shoir, insonparvarlik, sadoqat, dovyuraklik, yurt sog'inchi.

Аннотация: В этой статье уникальным образом отражены сведения о жизни, деятельности, мыслях Бабура. В статье приводятся мысли и комментарии к его деятельности как поэта и царя, а также к его произведениям, высказанным в них идеям.

Ключевые слова: Бабур, царь, поэт, человечность, преданность, отвага, ностальгия.

Annotation: In this article, information about Babur's life, activities, thoughts are reflected in a unique way. The article gives thoughts and comments on his activities as a poet and king, as well as his works, the ideas put forward in them.

Key words: Babur, king, poet, humanity, devotion, courage, nostalgia.

Bu dunyoda umrguzaronlik qilayotgan har bir inson o'zining oldiga ulkan maqsadlarni qo'yib yashaydi. Bugungi davr talabi har daqiqa, har on yangilikka intilishni, izlanishdan to'xtamaslikni taqozo etadi. O'qitish jarayonining yangi tamoyillar asosida tashkil etilganligi ham bizni yana ham izlanishga undayapti. Bugungi kunga kelib, ilm-fan rivojlanishishu darajaga yetdiki, o 'quvchilarga fanlarning asoslarini o'rgatish ham mumkin bo'lmay qoldi. Endilikda o'quvchilarga,

talabalarga qaysi fan asoslarini va qaysi usulda o‘rgatish kerakligi masalasi paydo bo‘ldi. Ta‘limni tashkil etishdagi bu xildagi o‘zgarishlar interfaol usullarning asosida o‘qituvchi bilan o‘quvchilarning birgalikdagi didaktik faoliyati yotadi. Bu metodlar ta’lim mazmunining to’liq o‘zlashtirilishida o‘quvchilarning o‘zaro bir-birlari va o‘qituvchilari bilan birgalikda faoliyat ko‘rsatishlarini ko‘zda tutadi. Ta’lim interfaol usullarda tashkillashtirilganda izlanish-faraz-yechim topish-izohlash-yangi izlanish tarzidagi didaktik shakl yuzaga keltirilganda, o‘quvchilarning ham bilim olish, ham shaxs sifatida shakllanishlariga imkoniyat yaratiladi.

Boburdan bizga ulkan meros qoldi. Bu meros shoirning devonlari, “Boburnoma”sidir. “Boburnoma” adabiy va tarixiy ahamiyatga molik asar sanaladi. Unda o‘z davrining ko’plab kishilarining turli vaziyatdagi kechinmalari haqidagi ma’lumotlar jamlangan. Osiyoning ko’plab tog’lari, daryolari, o’rmonlari, iqlimi, aholisi, ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi ma’lumotlar keltirilgan. Asarda tarixning Bobur yashab o’tgan davri voqealarini ifodalangan. Bu voqealar Andijon, Samarqand, Hirotdan boshlab Kobul va Agragacha bo’lgan qamrovga ega. “Boburnoma” dagi voqealar bayoni aniq, ixcham va lo’nda, eng muhimi, hayotiy haqiqatga mosligi bilan e’tiborlidir.

Akademik litsey darsligida “Boburnoma” asari va Mubayyin asari, g’azallari, ruboiylari, tuyuqlari, fardlari berilgan. Shoir lirikasining markazida muhabbat mavzusi, insonning pok sevgisini ulug’lash, hijron alamlaridan shikoyat, visol orzusi, vafodorlik tuyg’ulari yotadi:

*Hajring g’amidan oqibat o’lgum qaro ko ’z,
Yuz g’ussa-yu anduh ila borgum qaro ko ’z,
Vasling bila qilmading ilojin Bobur,
Mushkili firoqingda tirilgum qaro ko ’z.¹*

Bobur o’zining ijodida axloq-tarbiya masalasiga ham alohida e’tibor bergen:

*Xulqungni rost qilg’il har sarig’aki borsang,
Ahsanta der bori el gar yaxshi ot chiqorsang.*

Insoniy his-tuyg’ular shoir tomonidan yuksak san’at va mahorat bilan ifoda etilgan.

Bobur haqiqiy inson nomiga ega bo’lish uchun axloqning barcha qoidalariga rioya qilish kerakligini va shundagina kishi el hurmatiga va katta baxtga sazovor bo’lishini uqtiradi. Shoir ijodida haqiqiy inson yuqori darajada turadi, ulug’lanadi. Boburning ijodini o’rganishda jahon xalqlari adabiyoti vakillari ham katta e’tibor, qiziqish bilan qarashgan. 1930-yilda fransuz olimi Fernard Grenardning “Bobur. Hind imperiyasining asoschisi” nomli risola nashr etildi. Kitob 10 bobdan iborat bo’lib, unda Boburning bolalik vaqtidan to umrining so’nggi davriga qadar boshidan kechirgan voqealar tarixiy-badiiy asosda hikoya qilingan. Ushbu risola “Boburnoma” ga hamohang yozilgan bo’lib, undagi voqealarga monand keluvchi ocherklardan, Boburning Samarqandni tashlab chiqqan, Andijonni qo’ldan chiqargan paytdagi holatini quyidagicha tasvirlaydi: “Orzu-umidlari chilparchin bo’lgan Bobur orqaga qaytadi. U ezilgan ko’ngliga taskin berish niyatida o’zining quyidagi misra bilan boshlanuvchi g’azalini bitadi:

Jonimdan o’zga yori vafodor topmadim,

Ko’nglumdan o’zga mahrami asror topmadim”.

Bobur hayotidagi turli qiyinchiliklar, qarama-qarshiliklar, garchi u zakovat bobida ham munosib tarbiya ko’rgan bo’lsa-da, uning aql charxini yanada o’tkirlab, donishmandga aylantirdi, desak mubolag’a bo’lmaydi.

Bu olamda o’zumni chun yamon-yaxshidin o’tkardim.

Bundan tashqari, Bobur inson kamolotining birinchi ostonasi oila ekanligini uqtirib, u jarayon nihoyatda qiyin va murakkabligini his etgan edi. Bolalarning odob-axloq qoidalarini o’rganishi ko’p jihatdan atrofdagi shaxslarga bog’liqligini yaxshi bilgan. Bobur o’z farzandlarini tarbiyalashda tadbirkor, bilimdon odamlar bilan maslahatlashib, tajribali, fozil va tarbiya ko’rgan kishilar bilan kengashib ish tutgan. U o’zining “E’tiqodiya” asarida bolalarni yoshlikdan boshlab imonli, e’tiqodli qilib tarbiyalash masalalariga e’tibor bergen. Bobur ta’lim-tarbiya haqidagi g’oyalarini o’zining “Boburnoma”, “Mubayyin”, “Risolai validiya” asarlarida bayon etgan. Farzanddagagi baxt-saodat keltiruvchi bosh fazilat uning iymoni ekanligini ham ta’kidlab o’tgan.

Boburning ijodida vatanparvarlik ruhi yetakchi o’rin tutadi:

*Tole' yo'qi, jonimga balolog' bo'ldi,
Har ishnikim ayladim xatolig' bo'ldi,
O'z yerni qo'yib Hind sari yuzlandim,
Yo rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.*

Ushbu misralarda shohlikning ham ko'zga ko'rinnmasligini, uning vatan oldida, insonparvarlik oldida hech narsa emasligi va ayniqsa vatan ishqini Hind podsholigidan ham ustun turishi ko'rinish turadi.

Bobur devonining katta qismi g'azallardan iborat. G'azallarining ma'lum guruhi hasbi hol xususiyatiga ega bo'lib, shoir hayotining muayyan lavhasi bilan bog'lanadi. Birgina “Topmadim” radifli g'azalini olaylik. Bu g'azalning yozilish tarixi “Boburnoma” da ham keltirilgan. Bobur 1500-1501-yillarda Samarqandni ikki marta qo'lga kiritib, yana boy beradi. Bir muddat sarsonliklardan so'ng biror viloyat berar degan umidda Toshkentga xon bobosi Yunusxon huzuriga boradi. Bobosi O'rategani unga berishini aytadi, lekin bu gaplar va'daligicha qolib ketadi. Sargardonliklar, xiyonatlar, yaqinlaridan judo bo'lish, qarindoshlarning hamiyatsizligi, Shayboniyxonning tinimsiz ta'qibi shoirning ko'nglini cho'ktiradi. Bu hol Boburning his-tuyg'ularini junbushga keltiradi, uni qattiq qiynaydi. Ko'nglidagi iztiroblarni: “Jonimdan o'zga yori vafodor topmadim, Ko'nglimdan o'zga mahrami asror topmadim” matla'si bilan boshlanuvchi g'azalda ifoda etadi. “Yod etmas emish kishini mehnatta kishi” misrasi bilan boshlanuvchi ruboiysi ham shu kunlardagi ruhiy ezilishlar ta'sirida yozilgan edi. Ba'zida bunday avtobiografik satrlar oshiqona ruhdagi satrlar bilan almashinib keladi va nafis badiiylik ko'rsatiladi. Quyidagi g'azalga diqqat qilaylik:

*Jahondin menga g'am bo'lsa, ulusdin gar alam bo'lsa,
Ne g'am yuz muncha ham bo'lsa, seningdek g'amgusorim bor.*

“Jahondin menga g'am bo'lsa...” Bolalikdanoq hokimiyatning og'ir yuki zimmasiga ortilgan, hayotining ko'pgina qismi urushlar vaqtida kechgan, do'st-u birodarlari bir necha bor sotgan, alamlardan bag'ri dili ezilgan Boburning hasratlari bu. Hasrat va iqrorlardan so'ng yorga qarata: “Bu g'am va

alamlardan yuz barobar bo’lsa ham, mening g’amim yo’q, chunki sen borsan”
deya uning g’amxo’rligini istaydi.

*Mening ko’nglumki, gulning g’unchasidek tah-batah qondur,
Agar yuz ming bahor o’lsa, ochilmog’i ne imkondur.*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fernard Grenard. Bobur. Hind imperiyasining asoschisi. Paris:1930.179p
2. Tursunpo’latov M. Z.M.Bobur. Hayoti va ijodi. Toshkent “O’qituvchi” 1995-y.
56b